

**YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINING KAFOLATLANISHI:
MODERNIZATSIYA VA XALQARO TAJRIBALAR**

Ismatov Shohruhbek Murod o‘g‘li

Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

O‘rinov O‘tkirbek Nodir o‘g‘li

Buxoro davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Jamiyatni demokratlashtirish va huquqiy davlat barpo etish jarayon-lari inson huquq va erkinliklarini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining o‘z oldiga qo‘ygan taraqqiyot strategiyalarida inson huquqlarini ta‘minlash borasida qator vazifalar mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta‘minlash borasidagi islohotlar mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, inson huquqlari, erkinlik, burch, shaxsiy huquqlar, ijtimoiy huquqlar, madaniy huquqlar, siyosiy huquqlar

KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar davlat va jamiyat boshqaruv tizimidagi yondashuvni va faoliyat tamoyillarini tubdan o‘zgartirishga, O‘zbekistonda “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga amal qilishga qaratilgan. Yaqin yillarga qadar O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish borasida xalqaro tashkilotlar tomonidan tanqidlarga uchrar edi. So‘nggi yillardagi islohotlar natijasida, yurtimizda inson huquqlarini ta‘minlash borasida ancha o‘sislarga erishmoqdamiz. Jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yurtimizda inklyuziv ta‘lim joriy etilganligi, ayollar va bolalar zo‘ravonligini olish maqsadida himoya orderi joriy etilganligi, 2024-yil 3-dekabrda yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish maqsadida “Inson huquqlari uyi” faoliyatini boshlashi yurtimizda inson huquqlarining himoyalaniishi va kafolatlanishining yaqqol dalilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yilda-gi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmonida va yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarini himoya qilish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020-yildagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-sonli farmoni inson huquqlarini ta‘minlash borasidagi eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

NATIJALAR

So‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikda amalga oshirish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda davlatimiz inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Inson huquqlari bo‘yicha BMTning Oliy komissari boshqarmasiga a‘zo bo‘lganligi inson huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha xalqaro talablarni bajarishga sidqidildan kirishganligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston xalqaro normalarga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari ta‘limi sohasidagi Butunjahon dasturida faol ishtirok etib kelyapti.

Bugun yurtimizda “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida inson huquqlarini himoya qilish borasida bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonining 14-maqsadi – Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlash hamda inson qadri uchun ushbu jarayonning bosh mezonini sifatida belgilash deb olingan. Ushbu maqsad yo‘lida huquqshunoslar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyaning 20-maqsadi – Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish deb nomlanadi. Bugun jamiyatimizda insonlar o‘rtasida huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida turli so‘rovnomalar, suhbatlar o‘tkazilmoqda. Turli ijtimoiy tarmoqlarda qonunni bilmaslik, uni inkor etish, huquqiy nigilizmni oldini olish maqsadida yurtimizda huquqiy madaniyat darajasini oshirishga harakat qilinmoqda. Faol fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, huquqshunoslar, keng jamoatchilik vakillari faol ishtirok etmoqda hamda oila-mahalla-ta‘lim muassasasi hamkorligi yanada rivojlanmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilish borasidagi qoidalar ko‘plab mamlakat Konstitutsiyalarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 2013-yilda qabul qilingan Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bobi – inson huquqlari, asosiy fuqarolik huquqlari va fuqarolik majburiyatlariga, Filippin Konstitutsiyasi-ning 13-moddasi ijtimoiy adolat va inson huquqlari masalasiga, Sloveniya Kons-titutsiyasining 2-bobi – Inson huquqlari va asosiy erkinliklariga bag‘ishlangan. Mongoliya Konstitutsiyasining 2-bobi inson huquqlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda so‘z, din, vijdon erkinligi,

matbuot erkinligi, saylovlarda ovoz berish huquqi, qonun oldida tenglik, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va intellektual mulk huquqi, shuningdek, fuqaroning majburiyatlari, jumladan, soliq to‘lash va qurolli kuchlarda xizmat qilish sanab o‘tilgan. 2014-yil may oyida Norvegiya Konstitutsiyasida, 1998-yil Latviya Konstitutsiyasida inson huquqlari haqida bo‘lim qo‘shiladi.

XULOSA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga inson shaxsiy huquqlari himoyasiga oid qator progressiv kafolatlar kiritildi, ularning zaminida inson huquq va erkinliklari ustuvorligi — huquqiy davlatning oliy maqsadi, deb e‘tirof etilishi g‘oyasi yotadi. Aynan mana shu yondashuv asosida Konstitutsiyada inson huquqlariga oid normalar 3,5 baravardan ziyodga oshdi. Muhimi, inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir davlat idorasi faoliyatining mazmuniga aylanishi qat‘iy talab sifatida mustahkamlandi. Ya‘ni endilikda davlat organlari va mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatishiga konstitutsiyaviy asos belgilandi.

Hozirda O‘zbekistonda shaxs erkinligi va daxlsizligi ustuvorligi “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlat siyosati darajasida e‘tirof etilgan bir vaqtda insonning sha‘ni va qadr-qimmatini poymol qilishning eng og‘ir ko‘rinishlaridan biri — qiynoqqa solish faktlarining hali-hanuz jamiyatimizda mavjudligi mutlaqo yo‘l ko‘yib bo‘lmas holdir. Zero, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimiz markazida inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ezgu g‘oya mujassam. Chunki bizning muqaddas dinimizda ham, buyuk allomalarimiz boy ilmiy va ma‘naviy merosida ham, inson — hayot gavhari, tengsiz mo‘jiza sifatida ulug‘lanadi. Inson — davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo‘lishi lozim. Biz barpo etayotgan yangi O‘zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati hamma narsadan ustundir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yilda-gi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020-yildagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘z-bekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘-risida”gi PF-6012-sonli farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may.

5.Sh.Zokirov. Dunyo mamlakatlarining asosiy qonun hujjatlari. Toshkent-2022, 84-bet